



## MEHNAT BOZORI STATISTIKASI

**G'afurjonova Charos**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Alibekova Gulbahor**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ishchi kuchining tuzilishini statistik tahlil etish, mehnat bozoridagi talab va taklifni bashorat qilish hamda mehnat bo'yicha ma'lumotlarni xalqaro qiyoslash, amaliyotda bandlik turlari bo'yicha iqtisodiy faol aholining toifalari, ish vaqti statistikasi va balansi, mehnat unumdorligi statistikasi iste'mol qiymati bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar va natijalar tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ishchi kuchi, statistik tahlil, mehnat bozori, talab, taklif, bandlik, iqtisodiy faol aholi, ish vaqti statistikasi, ish vaqti balansi, mehnat unumdorligi statistikasi, iste'mol qiymati.

### **Kirish.**

Mehnat statistikalari xalqaro konferensiyasi qabul qilgan "Bandlik maqomining xalqaro tasnifi" (inglizcha versiyasi ICSE-93, o'zbekcha versiyasi BMXT-93) ga ko'ra ishchi kuchining tarkibiy tuzilishini statistik tahlil etish, mehnat bozoridagi talab va taklifni bashorat qilish hamda mehnat bo'yicha ma'lumotlarni xalqaro qiyoslash muhim ahamiyat kasb etadi

### **Tahlil va natijalar.**

BMXT-93 alohida shaxslarni haqiqiy yoki potensial bandlikka ko'ra tasniflaydi. Bunda band bo'lgan shaxslar maqomini ular haqiqiy bajarayotgan ishlari asosida, ishsizlarnikini esa ular oxirgi bajargan ishlari (agar ular ishlagan bo'lsa) yoki izlayotgan ish turi asosida aniqlash kerak boladi.

Aytib o'tilgan klassifikatordan foydalanish statistik amaliyotga bandlik turlari bo'yicha iqtisodiy faol aholining quyidagi toifalarini kiritishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy faol aholi- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun (bunga tovarlarni bozor, barter va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarish ham kiritiladi) o'z mehnatini taklif qiladigan har ikkala jinsga mansub shaxslardir.

Ko'pincha "iqtisodiy faol aholi" tushunchasi o'rnida "ishchi kuchi" va "mehnat resurslari" tushunchalari ishlatiladi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, "mehnat resurslari" toifasi yuqorida aytilgan toifalardan faqat "bandlar" va "ishsizlar" nigina emas balki mehnatga layoqatli aholining mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilar, uy bekalari, har xil sabablarga ko'ra iqtisodiy faol aholi hisoblanmaydigan mehnatga layoqatli boshqa shaxslarni qamrab olishi tufayli farqlanadi.

Ish vaqti balansini tuzish ish vaqti manbalari va ulardan qay darajada foydalanilganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu balans ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida ish vaqti manbalari keltiriladi, ikkinchi qismida ish vaqti fondi qanday ishlatilganligi korsatiladi, Yuqoridagi masala sharti bo'yicha ish vaqti balansini quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

Ish vaqti manbalari		Haqiqiy ishlangan va ishlanmagan vaqt		
Ko'rsatkichlar	Kishi soatlar	Foydalanish	Kishi soatlar	%
Kalendar vaqt fondi(73000*6.6)	481800	Haqiqiy ishlangan(53200*6.6)	351120	
		Uzrli sababga ko'ra ishlanmagan kunlar	270606	
Bayram va dam olish(12000*6.6)	79200	Shu jumladan:		
		O'quv ta'tili(1500*6.6)	9900	
Navbatdagi ta'til (3600*6.6)	2880	Xomiladorlik ta'tili(1300*6.6)	8580	
	23760	Kasallik sababli(900*6.6)	5940	
		Qonun bo'yicha ruxsat etilgan (400*6.6)	2640	
		Uzrli ishlanmagan kishi/soatlar	360	

### 1-jadval. Ish vaqti manbalari tasnifi.

Ish vaqti balansini korxonada, birlashma, tarmoq doirasida tuzilishi mumkin. Ish vaqti balansini maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanishni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega: haqiqiy ishlangan ish vaqti, uzurli ishlanmagan ish vaqti, ish vaqtining yoqotilishi. Bunday tahlil dinamikasi vaqt o'zgarishi bilan maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanishda qanday o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatadi.

### Xulosa

Xalq ho'jaligida band bo'lganlarga turli xil iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lganlar, korxonalar, tashkilot, muassasalar, ya'ni yuridik shaxslarda va shu bilan birga fizik band bo'lganlar ham kiritiladi. Demak, umumiy band bo'lganlarni o'rganish mikrodarajada, ya'ni korxonalar, firma va hokazolarda band bo'lganlarni o'rganishdan boshlanadi.

Ishchi kuchidan to'laroq foydalanish maqsadida, ish vaqti o'rganiladi. Agar mehnat, uning davomiyligi bilan o'lchansa, ish vaqti esa kalendar vaqtining bir qismi bo'lib, ishchining shu kalendar vaqtida ishlangan vaqtini ifodalaydi. Mehnat statistikasi amaliyotida koproq ishlangan ishchi/kun va ishchi/soat o'lchov birliklaridan foydalaniladi.





## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nabiyev X.N, Azimov M.Y., Akbarova Z. Makro-mikroiqtisodiy statistika. O'quv qo'llanma. – T., 2004.
2. В.Е.Адамов. и др. Экономика и статистика фирм. Учебник. 2003 г.
3. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
4. Салин В.Н. Макроэкономическая статистика. – М.: Дело, 2001.
5. Адамов В.Ё. Экономика и статистик фирм. –М.: Финстабинформ, 2000.
6. europa.eu.int
7. europa.eu.int/comm/relays/index\_en.htm
8. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
9. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
10. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
11. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)*, 6(1), 45-53.
12. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. *Экономика и инновационные технологии*, (1), 43-50.
13. Xolmanova, Z. (2022). Omonimlar–tafakkur omili. *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
14. Akbarova, N., & Azamatov, Z. (2023). Deformation measurement by digital holographic interferometry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 01039). EDP Sciences.
15. Nurumbetova, S. (2022). VAIN ASPECTS OF PRACTICAL RELIGIOUS EXAMINATION IN THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO PROHIBITED RELIGIOUS MATERIALS. *Science and Innovation*, 1(6), 108-113.